

Ingliz tilida rang bildiruvchi so'zlarning yasalishi

Nigora Xasanboyovna Maxpiratova
Fargona viloyati, Qo'shtepa tumani, 3-maktab

Annotatsiya: Tilshunoslikda derivatsiya (lat. derivatio - ayrilish) so'z yashash jarayoni bo'lib, so'z yashash asosi va hosila orasidagi denotativ ma'nolarida farqning bo'lishini anglatadi. Derivatsiya va qo'shma so'zlar bilimning strukturasini tashkil qiladi va Derivatsiya qo'shma so'zlar sodda so'zlarga qaraganda murakkab va ma'no jihatdan turli xil. Ular predmetni shunchaki nomlabgina qolmasdan balki, xususiyat va munosabatni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Talim, tabiya, ingliz tili, yasalish, ranglar.

Formation of color words in English

Nigora Khasanboyovna Makhipratova
Fargona region, Koshtepa district, School №3

Abstract: In linguistics, derivation (lat. derivatio - separation) is a process of word formation, which means the difference in denotative meanings between the base of word formation and the derivative. Derivatives and compounds form the structure of knowledge, and Derivative compounds are more complex and different in meaning than simple words. They not only name the object, but also include properties and relations.

Keywords: Education, nature, English language, making, colors.

Derivatsiya affiksatsiya, kompozitsiya, tovush almashinushi, ichki fleksiya, har xil takrorlar, kompozitsiya, so'z tartibi, urg'u, ohang kabilalar orqali amalga oshiriladi. Derivatsiya va qo'shma so'zlar kognitiv niqtai nazardan qaralganda:

- a) asos formaga qaraganda ma'lumot ko'p beradi;
- b) so'z yasalishi jarayonida yangi konseptual ma'no yaratadi;
- c) eski so'z qolipi asosida yangi ma'lumolar taqdimetadi;
- d) dunyoning konseptual manzarasini yaratish vositasida konseptual axborotlar signali bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, black - qora rang, blacken - qoraytirmoq. Ikki so'z ham borliqdagi ikki xil hodisani atab kelmoqda. Bu so'zlarning nomemasi ham, sememasi ham har xil, faqat bu so'zlar tarixiy o'zakdoshlik asosida birikkan. Masalan, - man va uning derivatsiyasi - manly.

Man - is an adult male human being, manly - assumes much more meanings and connotations associated with men's behavior, character and appearance. By manly I mean all that eager, hearty, fearless, modest, pure. -ly suffiksi orqali man so'zning konseptik strukturasi o'zgarib, yangi konseptik so'zning shakllanishiga olib kelmoqda. Boshqacha qilib aytganda, bu qismlar predlogli qismlar uchun xoslangan.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda bu strukturalar bilimning asosiy shakllaridan hisoblanadi. Derivatsiyalar kognitiv belgi sifatida eski bilimlarga asoslangan holda yangi bilimning shakllanishiga - yangi konseptik modelining yaratilishiga olib kelmoqda.

Wyler o'z tadqiqot natijalarida -ish va -y derivatsiyasiga quyidagi misollarni keltiradi: blackish, reddish, yellowish, greenish, bluish, brownish, grayish, pinkish, purplish, yellowy, greeny.

Ranglarda derivatsiya hodisasi oraliq ranglardan ko'ra asosiy ranglarda ko'proq kuzatiladi. Frankovska o'z essayning bir qismini - ish suffiksining rang-larga qo'shilishiga bag'ishlagan. U o'z ishini gazeta va kitob-lardan, so'rovnomalra natijalriga asoslangan.

U shunday yozadi: - we are free to drive the following complex forms: whitish, blackish, yellowish, brownish, pinkish, reddish, greenish, bluish, violetish, grayish. However when the base is a shade, a secondary colour or a very specific colour, the derivation appears to be blocked quite frequently.

Qabul qilinuvchi formalarga amberish, goldish, silverish; qabul qilin-maydigan formalarga peachish, orangish, olivish, scarlatish, emeralish kiradi. Ranglarda derivatsiya hodisasi tufayli ot, sifat va fe'l so'z turkumida oid so'zlar yasaladi.

Ot yasalishi Affikslar - prefiks va suffikslarga bo'linadi. Rang leksemalariga affekslar qo'shilishi natijasida qo'shma otlar hosil bo'ladi. -ness affiksli qo'shma ot: whiteness-oqlik, oppoqlik, blackness-qoralik Kompozitsiya usuli bilan qo'shma va juft otlar hosil qilinadi. Qo'shma otlar (compound nouns) ning bu usuli yordamida quyida kompozitsion qoliqlar orqali rang leksemalari ishtirokida quyidagi otlar yasaladi: Adj+noun: blackbird - qora qarg'a, blackguard - ablah, blackbord-doska, bluebell - qo'ng'iroq Adj + verb: blackwash-uydirma, whitewash-oqlamoq Adj+adj: blue-green, blue-grey, blue-white, purple-blue, red-brown Asosan predmetning belgisini bildiruvchi, darajalanuvchi so'z sifat deyiladi. Boshqa so'z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg'un belgi ifodalashi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Masalan, flower is red deganda statik belgi nazarda tutiladi. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan farq qiladi. Masalan, reddish - qizg'ish. Boshqa so'z turkumlarida bunday xususiyat yo'q. Belgi tushunchasi o'z ichiga rang-tus, hajm-shakl, xarakter, vazn, ma'za-ta'm kabilarni qamrab oladi. Sifatlar ma'no jihatdan asliy (qualitative) va nisbiy (relative) ga bo'linadi.

Asliy sifatlar predmetning turg'un, darajalanadigan belgisini bildiradi: yellow, brown, blue, red, brown, black Nisbiy sifatlar belgini qandaydir bir predmet belgi, miqdor, o'rin va harakatga nisbatan ifodalaydi. Rang leksemalarining barchasi rang tusni bildiruvchi sifat guruhga kiradi:

1. black, blue, brown, green, grey, orange, pink, purple, red, white, yellow

2. Xususiyat bildiruvchi sifatlar: greenhorn, yellow steak, white lie Ingliz tilida ranglar leksemasi suffikslar yordamida qo'shma sifatlar yasalishiga xizmat qiladi: -ly: blackly-xiralashgan Kompozitsiya usuli bilan qo'shma sifatlar hosil bo'ladi. Adj+noun: red-brick, red-faced, red-haired, red-handed

Adj + adj: Blue-green, green-blue.

Ingliz tilida 17 ta mana shunday birikmali ranglar aniqlangan: blue-black, black-white, grey-black, blue-green, blue-grey, blue-white, purple-blue, redbrown, grey-brown, yellow-brown, greygreen, yellow-green, red-green, greywhite, orange-red, red-white and yellow-white.

Rang tusni bildiruvchi sifatlari - ish kabi affikslari belgining kuchsiz darajasini ifodalamaydi. Masalan, reddish - qizilroq qizil rangning kuchsiz dariasi emas, balki unga o'xshash bo'lgan rang turi. Fe'l ish - harakat yoki holatni jarayon sifatida ifodalaydi.

Holatni ifodalash boshqa so'z turkumlariga ham xos. Biroq fe'lda bir tusdan boshqa bir tusga o'tish tarzida ifodalanadi. Masalan, a tree is green gapida turg'un holatni ifodalanmoqa, a tree is becoming green gapida esa bir holatdan boshqa bir holatga o'tish jarayoni ifoda-lanmoqda.

Affiksatsiya usuli yorda-mida fe'l bo'lman so'z turkumlaridan fe'l yasaladi. -en: blacken, whiten Kompozitsiya usuli yordamida qo'shma fe'llar yasaladi. Adj+noun: blackmail, blackball Adj+verb: whitewash Shunday qilib, rang - tusni belgilovchi so'zlar o'ziga qo'shimchalar qabul qilib yasalish xususiyatiga ega. Bu derivatsiya jarayonida o'rganish mumkin.

Derivatsiya affik-satsiya, kompozitsiya, tovush almashinushi, ichki fleksiya, har xil takrorlar, kompozitsiya, so'z tartibi, urg'u, ohang kabilar orqali amalga oshiriladi. Ranglarda derivatsiya hodisasi tufayli ot, sifat va fe'l so'z turkumida oid so'zlar yasaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Турдиева М. Олий таълим муассасалари талабаларида педагогик тафаккурни шакллантириш. –Т.:Низомий номидаги ТДПУ, 2008.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. Podlasiy I.P. Pedagogika / Kniga 1. — M.: Vlados, 2003.

4. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi /Met.qo'll. — T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.